YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 28-aprel, №16 (8034)

GLOBAL ZIDDIYATLAR, QARAMA-QARSHILIKLAR, YETAKCHILIK UCHUN KURASH AVJ OLAYOTGAN HOZIRGI SHAROITDA DUNYO OLDINGIDEK “SOKIN” BO‘LMAYDI. BUNDAY VAZIYATDA BARCHA RAHBARLAR O‘ZI ODATLANIB QOLGAN ISH USLUBI, YONDASHUVI, KERAK BO‘LSA, DUNYOQARASHINI MUTLAQO O‘ZGARTIRISHI ZARUR.

Shavkat MIRZIYOYEV



IQTISODIY O‘SISH SUR’ATLARI TAHLIL QILINIB, USTUVOR VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 24-aprel kuni joriy yilning birinchi choragida hudud va tarmoqlardagi iqtisodiy o‘sish tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilish avvalida joriy yilning birinchi choragida erishilgan makroiqtisodiy natijalar ko‘rib chiqildi. Xususan, yalpi ichki mahsulot 8,7 foizga, sanoat 8 foizga, xizmatlar 16,1 foizga, qishloq xo‘jaligi 5,1 foizga o‘sdi. Eksport 5,8 milliard dollarni, xorijiy investitsiyalar hajmi 13,7 milliard dollarni tashkil qildi. Inflyatsiya yillik hisobda ilk bor 7,1 foizgacha pasaydi.

Buning hisobiga yanvar-mart oylarida budjet daromadlari o‘tgan yilga nisbatan 35 foizga ko‘payib, 103 trillion so‘mga yetdi. Mahalliy budjetlarda qo‘shimcha 2 trillion 200 milliard so‘m mablag‘ shakllandi. Muhimi, shundan 1 trillion 400 milliard so‘mi tuman va shaharlar ixtiyorida qoldirildi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyotni xalqaro miqyosda yangi bosqichga olib chiqish uchun tizimli islohotlar amalga oshirilayotganini ta’kidladi. Jumladan, kelasi oy 2 milliard 400 million dollarlik davlat aktivlarining 30 foizi ilk bor xalqaro fond bozorlariga chiqarilishi qayd etildi. Bu Milliy investitsiya jamg‘armasi tashkil etilib, 13 ta strategik korxona boshqaruvi nufuzli “Franklin Templeton” kompaniyasiga berilgani bilan bog‘liq.

O‘tgan hafta Xalqaro valyuta jamg‘armasi e’lon qilgan hisobotda yuqori iqtisodiy faollik orqali O‘zbekiston kuchli va barqaror iqtisodiy o‘sishni saqlab qolayotgani qayd etilgani ta’kidlandi. Shuningdek, joriy yil mamlakatimiz nufuzli “Iqtisodiy erkinlik indeksi”da 14 pog‘ona yuqorilab, ilk bor “iqtisodiyoti mo‘tadil erkin” davlatlar qatoridan joy oldi.

Yig‘ilishda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish masalalari alohida tahlil qilindi. Joriy yil banklar orqali ushbu yo‘nalishga 140 trillion so‘m yo‘naltirilmoqda. Masalan, kichik biznesga berilgan har 1 milliard so‘m kredit hisobiga Shirin shahrida 20 ta, Uchquduqda 17 ta, Xonobod va So‘xda 14 tadan, Tomdi tumanida 13 ta doimiy ish o‘rni yaratilgan.

Biroq Uchko‘prik, Piskent, Bo‘stonliq, Karmana, Qo‘rg‘ontepa tumanlarida 1 milliard so‘mlik kreditga o‘rtacha 3 ta ish o‘rni to‘g‘ri kelmoqda. Shu bois, kredit resurslarini taqsimlashda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Soha mas’ullariga tuman banklarini sun’iy intellekt bilan ishlashga o‘qitishni boshlash, banklarda “Sun’iy intellekt maslahatchisi” platformasini ishga tushirish topshirildi. Bu platforma tadbirkorlarga kredit olish uchun loyihaning parametrlari, risklari va bozordagi talabni tahlil qilib, tayyor yechimlar berishi kerakligi ta’kidlandi.

Oziq-ovqat xavfsizligi masalalari ham atroflicha ko‘rib chiqildi. Logistikadagi uzilishlar oqibatida birinchi chorakda qoramol importi ikki karra kamaygan. Bunga tezkor yechim sifatida samolyotda tashiladigan har bir naslli qoramol uchun 4 million so‘mgacha, go‘sht importida esa transport xarajatining yarmini qoplash yo‘lga qo‘yildi.

Ikkinchi chorakda 45 ming tonna, yil yakunigacha jami 130 ming tonna go‘sht importini ta’minlash zarurligi qayd etildi. Mutasaddilarga qaysi yo‘nalishda to‘siq bo‘lsa yoki yuk to‘xtab qolsa, tadbirkorlar murojaat qilishini kutmasdan, onlayn monitoring orqali tezkor yechim berish topshirildi.

Hududlarda 478 ming gektarda ozuqa ekinlari ekilishi rejalashtirilgan. Lekin Namanganda ozuqa yerlarining 74 foiziga haligacha ekin ekilmagani, chorvachilikda imkoniyati yuqori bo‘lgan Zarbdor, Qiziltepa va Pop tumanlarida silos ekish boshlanmagani, Amudaryo, G‘ijduvon, Xonqa va Bag‘dodda ham ishlar qoniqarsiz ekani tanqid qilindi.

Yana 100 ming gektar ekin yerini yangi tizim asosida auksionga chiqarish belgilangan. Mazkur yerlarni tezkor auksionga chiqarib, ekin ekish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Sanoat plantatsiyalari tashkil etadigan tadbirkorlarga imtiyoz va moliyaviy resurslar berilayotgani qayd etilib, viloyat hokimlariga bu yil kamida 5 tadan yirik sanoatlashgan meva-sabzavot plantatsiyasini namunali tashkil etish topshirildi.

Eksportchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham kamchiliklar ko‘rsatib o‘tildi. So‘nggi olti oyda 908 ta tadbirkor 3 milliard 600 million dollarlik shartnoma tuzgan bo‘lsa-da, hamkorlardagi vaziyat o‘zgargani sababli eksportni boshlay olmagan. Ayrim hokimlar esa ularga yordam berish o‘rniga vaziyatni o‘z holiga tashlab qo‘ygan.

Oqibatda birinchi chorakda eksport Norin, Kasbi, Sherobod, Yozyovon va Denovda 2 karradan ziyod kamaygan. Shahrisabz, Uchquduq, Parkent, Toshkent tumanlari, Jizzax, Navoiy, Namangan, Angren, Bekobod va Nurafshon shaharlarida esa eksport prognozi 70 foizga ham yetmagan. Ushbu hudud rahbarlari birinchi yarim yillikda o‘sishni ta’minlamasa, qat’iy xulosa qilinishi ma’lum qilindi.

Davlat idoralarini ixchamlashtirish va biznes uchun yangi maydonlar ochish masalasi ham muhokama qilindi. Tumanlardagi markaziy ko‘chalar va aholi gavjum joylarning katta qismida davlat idoralari joylashgani qayd etildi. “Ko‘kdala tajribasi” asosida 19 ta tuman va shaharda davlat idoralarini yagona ma’muriy markazga ko‘chirish boshlanmoqda.

Mazkur ishlarni barcha tumanlarda tashkil etish orqali davlat idoralarida yiliga 1 milliard 800 million kilovatt-soat elektr va 340 million kub metr gaz tejalishi, biznes uchun 5 million kvadrat metr joy ochilishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. Shu maqsadda besh yillik dastur tayyorlash, joriy yil 26 ta tumanda davlat idoralarini bir joyga ko‘chirishni boshlash topshirildi. Yangi ma’muriy markazlar qurishda har bir xodimga to‘g‘ri keladigan maydon o‘rtacha 15 kvadrat metrdan oshmasligi belgilandi.

Yig‘ilishda “Aqlli tuman” platformasi va vaziyat-tahlil markazlari tajribasini kengaytirish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Davlatimiz rahbari Mirzo Ulug‘bek tumanidagi situatsion-tahlil markazida mazkur platforma qanday tashkil qilingani bilan tanishgani qayd etildi. Barcha viloyat hokimlariga ikki oyda ushbu tajriba asosida viloyat markazlari va yirik shaharlarda xuddi shunday situatsion-tahlil markazlarini ishga tushirish topshirildi.

Davlatimiz rahbari barcha darajadagi rahbarlar bugungi murakkab vaziyatda natija uchun shaxsan mas’ul ekanini ta’kidladi. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, inflyatsiyani jilovlash, ish o‘rinlari yaratish, eksportni ko‘paytirish, investitsiya sifati va tadbirkorlar muammolarini hal qilish har bir rahbar faoliyatining asosiy mezoni bo‘lishi belgilandi.

Yig‘ilishda vazirlar, tarmoq rahbarlari va hokimlarning hisobotlari tinglandi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

RAHBAR VA YOSHLAR UCHRASHUVI



OCHIQ MULOQOT VA YANGI IMKONIYATLAR

Bekobod tumani IT markazida yoshlar bilan muhim uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Tadbirda tuman hokimi hamda DXX rahbari ishtirok etib, yoshlar bilan ochiq va samimiy muloqot o‘tkazdi.

Uchrashuv davomida yoshlarning fikr-mulohazalari, maqsad va orzulari, shu bilan birga ular duch kelayotgan muammolar ham tinglandi. Ayniqsa, yoshlarning bandligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Natijada yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning samarali va kompleks tizimi shakllanmoqda. Bilimli, keng dunyoqarashga ega va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash esa ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangani ta’kidlandi.

Shuningdek, yoshlar mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish, ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallashga chaqirildi. Bu esa ularning jamiyatda munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, yoshlar — yurt kelajagi. Ularni qo‘llab-quvvatlash, bilim va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish orqali jamiyat taraqqiyotiga mustahkam poydevor yaratiladi.

Jahongir NURMUHAMMEDOV

Harbiylar hayoti

CHEGARACHILAR XIZMATIGA YUKSAK E’TIROF



Toshkent viloyati Bekobod tumanida yurt sarhadlarini fidoyilik bilan qo‘riqlayotgan harbiy xizmatchilar uchun yana bir quvonchli voqea yuz berdi. Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlari tasarrufidagi harbiy bo‘linma xodimlari uchun bunyod etilgan zamonaviy turar joy binosi tantanali ravishda foydalanishga topshirildi.

Mazkur ezgu tashabbus — harbiylar mehnatiga berilgan yuksak e’tibor va e’tirofning amaliy ifodasidir. Yangi xonadonlar barcha qulayliklarga ega bo‘lib, unda istiqomat qiluvchi oilalar uchun munosib turmush sharoiti yaratilgan. Bu esa, o‘z navbatida, chegarachilarning xizmat vazifalarini yanada yuqori mas’uliyat bilan ado etishlariga xizmat qiladi.

Tantanali tadbirda so‘zga chiqqanlar yurt tinchligi va daxlsizligini ta’minlash yo‘lida sidqidildan xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarni samimiy muborakbod etdilar. Shuningdek, mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun yaratilayotgan sharoitlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar alohida e’tirof etildi.

Darhaqiqat, bugungi kunda harbiy sohada olib borilayotgan islohotlar markazida inson qadri turibdi. Harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta’minlash, ularning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash — davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Yangi uylar — bu nafaqat qulay yashash maskani, balki fidoyi xizmat uchun munosib rag‘batdir. Eng muhimi, bu xonadonlarda ulg‘ayayotgan farzandlar qalbida Vatanga sadoqat, tinchlikning qadriga yetish tuyg‘ulari yanada mustahkamlanadi.

Bekobodda foydalanishga topshirilgan ushbu yangi turar joylar ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Zero, sarhadlar mustahkamligi — yurt tinchligi va xalq farovonligining ishonchli garovidir.

Akrom MAMADALIYEV

Tajriba



SHOLICHILIK SOHASIDA KOREYA TEXNOLOGIYASI

Bekobod tumanida sholikor fermerlar ishtirokida “Sholi yetishtirishning intensiv texnologiyasi” mavzusida Janubiy Koreyaning “KOPIA” markazi bilan hamkorlikda o‘quv seminari bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda soha mutaxassislari, fermerlar hamda ilmiy xodimlar ishtirok etib, zamonaviy texnologiyalar asosida sholi yetishtirishning samarali usullari muhokama qilindi.

Dastlab tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Shuhrat Haydarov mehmonlarni tanishtirdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Pak Viktor Nikolayevich so‘zga chiqib, mamlakatimizda sholichilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, tarmoqni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish hamda fermerlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi davlat siyosatiga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori Abdullo Mansurov sohada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari, yangi yuqori hosildor navlarni yaratish, resurs tejovchi agrotexnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar haqida batafsil ma’lumot berdi.

“KOPIA” markazi direktori Kim Jae Hyun markaz tomonidan O‘zbekistonda olib borilayotgan ilmiy-amaliy ishlar, xususan, Koreya tajribasini joriy etish, zamonaviy urug‘chilik tizimini rivojlantirish va ilg‘or texnologiyalarni transfer qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalar haqida so‘z yuritdi.

Shuningdek, markaz eksperti, professor Um Miok “Koreyaning sholi urug‘ini yetishtirish va tarqatish tizimi hamda ishlab chiqarish texnologiyasi” mavzusida taqdimot o‘tkazib, unda yuqori sifatli urug‘lik yetishtirish, seleksiya jarayonlari, mexanizatsiya darajasi va hosildorlikni oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar haqida batafsil tushuntirishlar berdi.

Seminar davomida Bekobod tumani sholikor fermerlari Koreya texnologiyasiga katta qiziqish bildirib, uni mahalliy sharoitda joriy etish imkoniyatlari yuzasidan o‘z savollariga mutaxassislardan javoblar oldilar hamda amaliy tavsiyalar bilan tanishdilar.

Gulnoza ATAMURODOVA

YOSH KITOBXON

O‘ZIMIZNING ODINAXON — VILOYAT G‘OLIBI!



“Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovining Toshkent viloyati bosqichi yuqori saviyada yakunlandi. Kitobga mehr qo‘ygan, bilimga chanqoq yoshlar o‘rtasida kechgan ushbu bellashuv yana bir bor iste’dodli o‘g‘il-qizlarimizning salohiyatini namoyon etdi.

Tanlovning 10–14 yosh toifasi bo‘yicha yakuniy natijalarga ko‘ra, Bekobod tumanidan ishtirok etgan 14 yoshli Suvonqulova Odinaxon g‘olib deb topilib, respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Uning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishi, keng dunyoqarashi va mustahkam bilimlari hakamlar hay’ati tomonidan yuksak baholandi.

Mazkur yutuq nafaqat yosh kitobxonning shaxsiy muvaffaqiyati, balki hududimiz yoshlari orasida kitobxonlik madaniyati tobora yuksalib borayotganining yorqin ifodasidir. Bunday tanlovlar yosh avlodni mutolaa qilishga, tafakkurini kengaytirishga va ma’naviy kamolot sari intilishga undaydi.

Ahamiyatlisi, avvalgi sonlarimizda Odinaxon uchun tuman hokimligi tashabbusi bilan besh ming kitob jamlangan kutubxona barpo etilgani haqida yozgan edik. Ana shu ilm maskani bugun o‘z samarasini berib, yosh kitobxonning navbatdagi zafariga yo‘l ochdi.

Qahramonimizni ushbu muhim g‘alaba bilan samimiy muborakbod etamiz. Unga respublika bosqichida ham ulkan zafarlar, omad va yuqori marralarni zabt etishni tilab qolamiz.

O‘z muxbirimiz

HOKIM KUBOGI

“IT BILIMDONI” MUSOBAQASI YOSH ISTE’DODLARNI BIRLASHTIRDI



Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga kirib bormoqda. Shu bois yoshlarning IT sohasiga qiziqishini oshirish, ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish dolzarb vazifalardan biridir. Aynan shu maqsadda Bekobod tumanida “IT bilimdoni” musobaqasi tashkil etildi.

Bekobod tumani hokimi olimpiadasi doirasida o‘tkazilgan ushbu musobaqa muvaffaqiyatli yakunlandi. Unda 5-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan 300 nafarga yaqin o‘quvchi faol ishtirok etdi. Ishtirokchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazib, IT sohasidagi iqtidorlarini namoyon etdilar.

Musobaqa jarayonlari to‘liq raqamlashtirilgan holda tashkil etildi. Test savollari va amaliy topshiriqlar kompyuter orqali bajarildi, natijalar esa avtomatik tizim asosida hisoblab chiqildi. Baholash jarayonining shaffofligi adolatli natijalarni ta’minlashga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, “IT bilimdoni” kabi tanlovlar yoshlarning axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish hamda raqamli savodxonlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sarvinoz SHERALIYEVA

SPORT VA SOG‘LOM TURMUSH TARZI



YANGI SPORT MASKANI

Bekobod tumanining “Do‘stlik” MFY Zomin qishlog‘ida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barpo etilgan yangi sport maydonchasi nafaqat hudud aholisi uchun quvonchli voqea bo‘ldi, balki sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda muhim qadam bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ushbu zamonaviy majmua sun’iy qoplamali futbol maydoni hamda yoshlarga mo‘ljallangan “street workout” maydonchasini o‘z ichiga oladi. Endilikda qishloq yoshlari va sportga qiziquvchi barcha fuqarolar yilning istalgan faslida qulay va xavfsiz sharoitda sport bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Sport inshootining foydalanishga topshirilishi aholi, ayniqsa, yoshlar orasida bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, zararli odatlardan yiroq bo‘lish va jismonan chiniqish, umuman olganda, kelajak avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahallada turli sport musobaqalari va ommaviy tadbirlarni o‘tkazish imkoniyati ham kengaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sport infratuzilmasini rivojlantirish, ayniqsa, chekka hududlarda zamonaviy sport maydonchalarini barpo etish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Bu esa aholining barcha qatlamlarini jismoniy faollikka jalb etish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish hamda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni kashf etishga xizmat qiladi.

Jahongir SULTONOV

AMIR TEMUR OYLIGI

YOSHLAR QALBIDA MILLIY RUH VA TAFAKKUR UYG‘UNLIGI

Tumanimizdagi 1-umumta’lim maktabida “Amir Temur oyligi” doirasida mazmunan boy, ma’naviy-ma’rifiy ruhdagi tadbir tashkil etildi. Ushbu tadbir yosh avlod qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat, tariximizga sadoqat va intellektual salohiyatni oshirishga xizmat qilgani bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Tadbir davomida maktabning iqtidorli o‘quvchilari ishtirokida bir qator qiziqarli tanlovlar o‘tkazildi. Xususan, “Zakovat” intellektual o‘yini, “Kitobxon” tanlovi hamda “Suratlar so‘zlaganda” nomli ijodiy ishlar tanlovi o‘quvchilarning bilim va tafakkurini namoyon etdi. Ayniqsa, “Milliylik — o‘zligimiz timsoli” mavzusida tashkil etilgan milliy taomlar festivali tadbirga o‘zgacha fayz bag‘ishlab, milliy an’analarimizni targ‘ib etishda muhim o‘rin tutdi.

Mazkur tadbirlar “Besh tashabbus” doirasidagi musobaqalar bilan uyg‘unlashib, barcha ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Yoshlar o‘z bilim, iqtidor va ijodkorliklarini sinovdan o‘tkazib, faol ishtirok etdilar.



Tanlovlar yakunida o‘quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlar hakamlar hay’ati tomonidan adolatli baholanib, eng faol va namunali ishtirok etgan jamoalar faxriy yorliqlar, esdalik sovg‘alari hamda qimmatbaho mukofotlar bilan taqdirlandi.

Tadbirda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi rahbari Nurali Jalilov, “Do‘stlik” mahallasi raisi Nuriddin Alimov hamda maktab direktori Umida O‘sarovalar so‘zga chiqib, g‘oliblarni samimiy tabriklab, yoshlarni ilm olish, yurt ravnaqiga hissa qo‘shishga chorladilar.

Shuningdek, tadbir davomida ijro etilgan milliy kuy-qo‘shiqlar yig‘ilganlarga ko‘tarinki kayfiyat ulashib, bayramona muhitni yanada boyitdi.

Quvonarlisi, bu kabi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tumanimizning boshqa ta’lim muassasalarida ham izchil davom etmoqda. Bu esa yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash yo‘lida muhim qadamlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Mirzabek SHERBEKOV



SAVODXONLIK BAYRAMI

ILM SARI ILK QADAM

Bekobod tumani 18-umumta’lim maktabida 1-“B” sinf o‘quvchilari hayotidagi unutilmas voqea — “Savodxonlik bayrami” yuqori saviyada tashkil etildi. Mazkur tadbir kichkintoylarning ilk bor savod chiqarib, harflar va raqamlar olamiga kirib kelganliklarini nishonlashga bag‘ishlandi.

Bayram maktab direktori tomonidan samimiy kirish so‘zi bilan ochib berildi. O‘z nutqida u o‘quvchilarning dastlabki yutuqlari, ustozlarning fidokorona mehnati hamda ota-onalarning beqiyos qo‘llab-quvvatlashi haqida alohida to‘xtalib, barchaga ezgu tilaklar bildirdi.

Tadbir davomida sahnalashtirilgan “Harflar tilga kirdi” nomli chiqish barchada katta taassurot qoldirdi. Unda alifbodagi 29 ta harf jonlantirilib, har bir o‘quvchi o‘ziga biriktirilgan harf haqida she’r aytib, iste’dodi va ijodkorligini namoyon etdi. Ushbu chiqishlar mazmunan boyligi va qiziqarli jihatlari bilan yig‘ilganlar e’tiborini tortdi.

Shuningdek, bolajonlar turli kasblar haqida she’rlar aytib, kelajakda kim bo‘lishni orzu qilishlari haqida o‘z fikrlarini ifoda etdilar. Raqamlar mavzusiga bag‘ishlangan chiqishlar esa ularning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirdi.

Bayram turli qiziqarli o‘yinlar, sahna ko‘rinishlari va interfaol mashg‘ulotlar bilan boyitildi. O‘quvchilar bu jarayonda faol ishtirok etib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini amalda namoyish etdilar. Tadbirni kuzatish uchun kelgan ota-onalar farzandlarining erishgan yutuqlaridan faxrlanib, ularni olqishlar bilan qo‘llab-quvvatladilar.

Bayramning eng hayajonli lahzalaridan biri — a’lo baholarga o‘qiyotgan o‘quvchilarni taqdirlash marosimi bo‘ldi. Ular maktab ma’muriyati tomonidan maqtov yorliqlari va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Tadbir yakunida o‘g‘il bolalar va qizlar ijrosida raqs namoyish etilib, bayramga o‘zgacha go‘zallik va ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi. Umuman olganda, “Savodxonlik bayrami” puxta tayyorgarlik asosida, yuqori saviyada va ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi. Ushbu unutilmas kun kichkintoylar qalbida ilm sari ilk qadamlarning quvonchini muhrlab, ularning kelajakdagi yutuqlari uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ziyoda QO‘ZIBOYEVA,
Bekobod tumani
18-umumta’lim maktabi
1-“B” sinf rahbari

Raqamli xavfsizlik

FIRIBGARLARNI BIR SONIYADA FOSH QILISHGA TAYYORMISIZ?

Hozirgi kunda firibgarlik holatlari tobora ko‘payib bormoqda. Shu bois ogohlik davr talabiga aylangan. Ko‘pchilikni “firibgarni bir zumda fosh qilish mumkinmi?” degan savol o‘ylantirishi tabiiy. Chunki bugungi kunda aldov turli ko‘rinishlarda uchrab, nafaqat oddiy insonlarni, balki tajribali kishilarni ham tuzoqqa tushirishga urinmoqda. Ayniqsa, internet rivoji firibgarlarning usullarini yanada mukammallashtirib yubordi. Demak, ularni tezda tanib olish va o‘zimizni himoya qilish nihoyatda muhim.

Mamlakatimizda firibgarlikning oldini olish borasida qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yaqinda Darknetda 15 millionga yaqin fuqaroning shaxsiy ma’lumotlari tarqalganligi haqidagi xabarlar jamoatchilikda xavotir uyg‘otdi. Shundan so‘ng My.gov.uz platformasida “kreditga taqiq qo‘yish” tizimi ishga tushirildi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu xizmatdan 440 mingdan ortiq fuqaro foydalangan.

2025-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, firibgarlik yo‘li bilan fuqarolar nomiga onlayn kredit rasmiylashtirish bilan bog‘liq 463 ta holatda qariyb 15 milliard so‘m zarar yetkazilgan. Ombudsman axborot xizmatining ma’lum qilishicha, 2025-yilda iqtisodiy huquqlarga oid 6 mingdan ortiq murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning 9 foizi firibgarlik bilan bog‘liq. Bu esa yuqoridagi holatlar kamaymayotganini, aksincha ortib borayotganini ko‘rsatadi. Bunga fuqarolarning e’tiborsizligi, axborot va moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi sabab bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilikni “agar fuqaro nomiga onlayn kredit olinib qolsa, kim javobgar bo‘ladi?” degan savol qiziqtiradi. Bu



borada Adliya vazirligi va Markaziy bank hamkorligida masofaviy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha minimal talablar belgilandi.

2026-yildan boshlab, agar fuqaro nomiga kredit firibgarlik yo‘li bilan rasmiylashtirilgani aniqlanib, u jabrlanuvchi sifatida e’tirof etilsa, kredit tashkiloti mazkur kredit va unga hisoblangan foizlarni undirishni to‘xtatadi. Bu esa fuqarolarni ortiqcha moliyaviy yukdan himoya qiladi. Yetkazilgan zarar esa firibgar shaxsdan undiriladi.

Shuningdek, Markaziy bank tashabbusi bilan Kredit-axborot tahliliy markazi tomonidan “Kredit xabarnoma” xizmati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu xizmat orqali fuqarolar o‘z nomiga yangi kredit rasmiylashtirilgani haqida darhol xabardor bo‘lishadi. Bildirishnomalar SMS yoki mobil ilova orqali yuboriladi. Xizmat noqonuniy kreditlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Foydalanuvchilar kredit tarixini muntazam nazorat qilib borishi mumkin. Xizmatdan foydalanish uchun mobil ilovadagi “Qo‘shimcha xizmatlar” bo‘limida “Kredit xabarnoma” funksiyasini faollashtirish lozim. Xizmat pulli bo‘lib, bir yil davomida amal qiladi.

Agar fuqaro o‘zi olmagan kredit haqida xabar olsa, avvalo kredit tarixini tekshirishi, zarur bo‘lsa “kreditga taqiq” xizmatini yoqishi, shuningdek, bank va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishi kerak.

Bugungi kunda yoshlar internetdan samarali foydalanishni yaxshi biladi va firibgarlik holatlarini tezda anglab yetadi. Ammo katta yoshdagi fuqarolar ko‘proq xavf ostida qolmoqda. Firibgarlar ko‘pincha o‘zini “davlat xodimi” deb tanishtirib, ishonchga kiradi va shoshilinch qaror qabul qilishga majbur qiladi. Masalan, “hozir pul o‘tkazmasangiz, imkoniyatni boy berasiz” kabi gaplar bilan bosim o‘tkazadi. Aslida esa haqiqiy davlat xodimlari shoshiltirmaydi, aksincha, masalani tushuntirib, fuqaroga o‘ylash uchun vaqt beradi.

Aholini ogohlantirish maqsadida metro va avtobus bekatlarida audioeshittirish tizimlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Bu orqali turli yoshdagi fuqarolar firibgarlikdan ogoh qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, firibgarlik bugungi kunda fuqarolarning moliyaviy xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan muammo hisoblanadi. Biroq kredit tarixini nazorat qilish, zamonaviy xizmatlardan foydalanish va eng muhimi — hushyorlik orqali bu xavfni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Anbaroy JUMABOYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat boshqaruvi yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Tibbiy tadqiqotlar

II tip qandli diabet — surunkali metabolik kasallik bo‘lib, u insulin qarshiligi va oshqozon osti bezining beta hujayralaridan insulin sekretsiyasining progressiv kamayishi bilan xarakterlanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda 540 milliondan ortiq kishi ushbu kasallikdan aziyat chekmoqda va bu ko‘rsatkich yildan yilga o‘sib bormoqda. Kasallikning asosiy patogenetik mexanizmi giperglikemiya bo‘lib, u uzoq muddatda qon tomirlari, asab tizimi va ichki a’zolarda og‘ir asoratlarni keltirib chiqaradi. O‘zbekistonda ham II tip qandli diabet keng tarqalgan surunkali kasalliklar qatoriga kiradi va bu muammo tibbiyot sohasida alohida e’tibor talab etadi.

QANDLI DIABETNI DAVOLASHDA YANGI NATIJALAR



Ushbu maqolada II tip qandli diabet kasalligida metformin va insulin terapiyasining samaradorligini, ularning kombinatsion qo‘llanilish ko‘rsatmalarini hamda klinik amaliyotda optimal davolash strategiyasini aniqlashga bag‘ishlangan tadqiqot natijalari bilan bo‘lishamiz.

Tadqiqotda II tip qandli diabet tashxisi qo‘yilgan 60 nafar bemor ishtirok etdi. Ularning yoshi 35–70 yosh oralig‘ida bo‘lib, bemorlar ikki guruhga ajratildi: birinchi guruh faqat metformin qabul qilgan bemorlar, ikkinchi guruh esa metformin va insulin terapiyasini birgalikda olgan bemorlardan iborat bo‘ldi.

Bemorlar 12 oy davomida kuzatildi. Har uch oyda qon shakar darajasi (HbA1c), och qoringa va ovqatdan keyingi glyukoza miqdori nazorat qilindi. Shuningdek, tana vazni, qon bosimi, lipidlar darajasi, buyrak va jigar faoliyati ham muntazam tekshirildi.

Olingan natijalarga ko‘ra, har ikki guruhda ham glikemik ko‘rsatkichlar yaxshilangan, biroq kombinatsion terapiya olgan bemorlarda natija yanada samarali bo‘lgan.

Faqat metformin qabul qilgan bemorlarda HbA1c darajasi sezilarli kamaygan va ayrim bemorlarda maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilgan. Shu bilan birga, yengil oshqozon-ichak noqulayliklari kuzatilgan.

Metformin va insulin birgalikda qo‘llangan guruhda esa qon shakar darajasi yanada tez va barqaror normallashgan. HbA1c ko‘rsatkichi sezilarli darajada pasaygan, och qoringa glyukoza darajasi esa me’yoriy ko‘rsatkichlarga yaqinlashgan. Ayrim bemorlarda yengil gipoglikemiya holatlari kuzatilgan bo‘lsa-da, og‘ir asoratlar qayd etilmagan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, metformin II tip diabetni davolashda asosiy va samarali dori bo‘lib qolmoqda. Biroq kasallik og‘irlashgan holatlarda insulin qo‘shilishi davolash samaradorligini sezilarli oshiradi. Kombinatsion terapiya nafaqat glyukozani nazorat qilishda, balki uzoq muddatli asoratlar xavfini kamaytirishda ham muhim ahamiyatga ega ekani aniqlandi.

Demak, II tip qandli diabetni davolashda metformin va insulin terapiyasining birgalikda qo‘llanilishi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Har bir bemor uchun individual davolash rejasi ishlab chiqilishi, uning yoshi, kasallik davomiyligi va umumiy sog‘liq holati inobatga olinishi lozim.

Umuman olganda, farmakoterapiya, sog‘lom turmush tarzi va muntazam tibbiy nazorat uyg‘unligi diabetni samarali boshqarishning eng muhim omili bo‘lib qolmoqda.

Soliha MIRZAYEVA,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Davolash ishi fakulteti
2-bosqich talabasi

Hosil himoyasi

OQQANOTGA QARSHI SAMARALI KURASH CHORALARI



Oqqanot zararkunandasining zarari oqibatida paxta, sabzavot, poliz va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilining 30–40 foizdan ortiq qismi nobud bo‘lishi hamda mahsulotlar sifati pasayishi kuzatiladi. O‘simliklarni zararlashda asosan lichinkalar katta zarar yetkazadi. Oqqanot lichinkalaridan ajralib chiqadigan ekskrementlar o‘simlik barglari va mevalarini ifloslantiradi. Keyinchalik bu joylarda turli xil zamburug‘lar rivojlanib, o‘simlik kasallanishiga olib keladi. Natijada o‘simliklarda fotosintez jarayoni buzilib, ayrim hollarda ularning nobud bo‘lishi kuzatiladi.

Issiqxona oqqanoti tropik turga mansub bo‘lib, asosan himoyalangan maydonlarda erta bahordan kech kuzgacha rivojlanadi. O‘zbekiston sharoitida ochiq maydonlarda ham tarqalib, ituzumdoshlar va qovoqdoshlar oilasiga mansub ekinlarni kuchli zararlaydi.

Oqqanotga qarshi kurashda agrotexnik tadbirlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, zararkunandaning asosiy ko‘payish manbai bo‘lgan issiqxonalardan uning tarqalishini oldini olish, sariq rangli yelimlangan maxsus qog‘ozlardan foydalanish, o‘simliklarning chidamliligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, ya’ni organik va mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish, qator oralariga ishlov berish hamda o‘z vaqtida sug‘orishni tashkil etish tavsiya etiladi.

Biologik kurash usulida esa enkarziya entomofagini zararkunanda soniga qarab 1:20 va 1:30 nisbatlarda 10×10 metr sxema bo‘yicha tarqatish samarali hisoblanadi. Shuningdek, oltinko‘z entomofagining 3–4 kunlik tuxumlaridan 1:20–1:30 nisbatlarda 10 kun oralatib ikki marta qo‘llash tavsiya etiladi.

Kimyoviy kurash usullarida zararkunanda tarqalgan maydonlarda “Asetamiprid 20%” (0,15 l/ga), “Imidokloprid 20%” (0,3–0,4 l/ga) va boshqa ruxsat etilgan kimyoviy preparatlar bilan ishlov berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fahriddin SHAKIROV,
Ulug‘bek MAMATQULOV,
Shohruh ESHBOYEV,
Farruh ASQAROV,
“Oybek” O‘KCHM
inspektorlari

Gender tengligi

BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI



Yangi O‘zbekistonda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni tobora mustahkamlanib, ularga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Gender tengligi esa barqaror taraqqiyotning muhim mezoni sifatida qaralmoqda.

Gender tengligi — ayol va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashdir. Bu tamoyil ta’lim, mehnat, sog‘liqni saqlash va davlat boshqaruvi kabi sohalarda o‘z ifodasini topmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlarini himoya qilish va mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan qator qonun va qarorlar qabul qilindi.

Konstitutsiyaga muvofiq barcha fuqarolarning tengligi kafolatlangan bo‘lib, xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish, ularning bandligini ta’minlash va tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha aniq mexanizmlar joriy etilgan. Imtiyozli kreditlar va grantlar orqali ayollar biznesi qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Hududlarda “Ayollar daftari” orqali ehtiyojmand xotin-qizlar aniqlanib, ularga manzilli yordam ko‘rsatilmoqda. Kasb-hunarga o‘qitish, ish bilan ta’minlash va ta’limga jalb etish borasidagi ishlar ham izchil davom etmoqda.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda ayollar bandligining pastligi va stereotip qarashlar kabi muammolar ham uchramoqda. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun huquqiy madaniyatni oshirish, gender tenglik g‘oyalarini keng targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, gender tengligi va xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash jamiyat taraqqiyotining asosiy shartidir. Ayollar faolligi va salohiyati yuksalgan jamiyatda esa rivojlanish barqaror bo‘ladi.

Iroda QODIROVA,
Xalq deputatlari
Bekobod tumani Kengashi
deputati, XDP a’zosi

Kitobsevar millat



MA’NAVIYAT SARI BIR QADAM

2026-yil 13–17-aprel kunlari Milliy kutubxona hamda viloyatlar, shahar va tuman kutubxonalari tizimida “Kitobsevar millat” shiori ostida VI Respublika “Kitobxonlik haftaligi” bo‘lib o‘tdi. Haftalikni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad aholi va yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, tumanimizda axborot-kutubxona sohasini yanada rivojlantirish, aholiga axborot xizmatlarini ko‘rsatish, joylarda axborot-kutubxona muassasalariga qaratilayotgan e’tibor haqida keng jamoatchilikni xabardor etishdan iboratdir.

Haftalik davomida tuman kitobxonlari hamda kutubxonachilik va nashriyot sohasi mutaxassislarini respublikamizda chop etilgan yangi adabiyotlar bilan tanishtirish, turli mahorat darslari, mutolaa tadbirlari, yozuvchi va adiblar bilan ijodiy uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda boshqa qator ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish rejalashtirildi va amalga oshirildi.

Bekobod tuman axborot-kutubxona markazida ham ushbu haftalikning ochilish marosimi 13-aprel kuni bo‘lib o‘tdi. “Kitob bilan do‘stlashamiz” mavzusida kutubxonaga sayohat tashkil etilib, yangi kelgan adabiyotlar bilan kitobxonlar yaqindan tanishtirildi.

Haftalikning ikkinchi kunida “Yoshlar va kitobxonlik madaniyati” mavzusida 6-umumta’lim maktabi o‘quvchilari ishtirokida davra suhbati o‘tkazildi. Uchinchi kuni esa Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag‘ishlab “Temur tuzuklari bilimdoni” nomli kitobxonlar o‘rtasida intellektual o‘yin tashkil etildi.

To‘rtinchi kuni “Shoir bilan uchrashuv” mavzusida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir Nurali Jalil bilan ijodiy uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv doirasida shoirning “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan “Ustoz o‘gitlari” nomli kitob taqdimoti ham o‘tkazildi.

Tadbirda tuman hokimi maslahatchisi Saida Suvonova so‘zga chiqib, shoirning hayot va ijod yo‘li, “Ustoz o‘gitlari” kitobining O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov haqidagi xotiralar asosida yaratilgani hamda uning yozilish jarayoni haqida batafsil ma’lumot berdi.

Shoir Nurali Jalil esa o‘z ustoziga bo‘lgan samimiy xotiralarini kitobxonlar bilan o‘rtoqlashdi hamda o‘quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berdi. Tadbir iliq va mazmunli suhbatlar ruhida yakunlandi.

Haftalikning so‘nggi, beshinchi kunida “Kitobxon ona – kitobxon bola” mavzusida faol kitobxon onalar ishtirokida davra suhbati o‘tkazilib, haftalik yakunlandi.

Ma’naviyat va kitobga bo‘lgan muhabbatni targ‘ib etuvchi bunday tadbirlar yoshlar qalbida kitobxonlik madaniyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Nigora MAMADISOHOVA,
Bekobod tuman
axborot-kutubxona markazi
axborot-biblografiya
xizmati mutaxassisi

MAHALLADA MARAFON

Bekobod tumani “Terakzor” mahalla fuqarolar yig‘inida Prezidentimiz tomonidan videoselektor yig‘ilishlarida sportga qaratilayotgan e’tibor hamda har bir mahallada erta tongdan sport tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida sport marafoni tashkil etildi.

Mazkur tadbir aholini, ayniqsa yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb etish, ularning jismoniy faolligini oshirish hamda sportga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirishga xizmat qildi. Marafon ertalabki badantarbiya mashqlari va ommaviy yugurish bilan boshlandi.

Tadbirda mahalla yoshlari, nuroniylar hamda keng jamoatchilik vakillari faol ishtirok etib, sog‘lom hayot tarzining ahamiyatini amalda namoyon etdilar. Bunday tashabbuslar mahallalarda sport muhitini shakllantirish, yoshlarni zararli odatlardan yiroq tutish va ularni jismonan chiniqtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sportni ommalashtirish va sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir mahallada ertalabki sport tadbirlarini yo‘lga qo‘yish esa ushbu islohotlarning amaliy ifodasidir.

Mahmud MADRAHIMOV,
“Terakzor” MFY raisi

Faol hayot – uzoq umr

NURONIYLAR SPORT BILAN HAMNAFAS

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-martdagi “Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–92-sonli hamda 2024-yil 25-noyabrdagi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirishga faol nuroniylarni jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–405-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida “Nuroniy” jamg‘armasi va Sport maktabi hamkorligida “Nuroniylar sport bilan hamnafas” shiori ostida mini-futbol bo‘yicha tuman bosqichi musobaqasi o‘tkazildi.

Ushbu sport tadbiri keksalar salomatligini mustahkamlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etishga qaratildi. Musobaqada Mallaboy, Terakzor, Ziyoli va Oltin vodiy mahallalarida istiqomat qiluvchi nuroniylardan iborat jamoalar o‘zaro bellashdilar.



Bahslar nihoyatda qiziqarli va murosasiz tarzda kechib, har bir jamoa g‘alaba uchun bor kuch va mahoratini namoyon etdi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, Ziyoli mahallasining faol nuroniylaridan tuzilgan jamoa yuqori natija qayd etib, musobaqa g‘olibligini qo‘lga kiritdi.

Musobaqa jarayonlari Sport maktabining tajribali trenerlari tomonidan adolatli va xolis hakamlik asosida olib borildi.

Tadbir yakunida barcha ishtirokchilar va g‘olib jamoa a’zolari tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg‘alari hamda “Faxriy yorliq”lar bilan taqdirlandilar.

Mazkur musobaqa nuroniylar o‘rtasida sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularni faol hayot tarziga jalb etish hamda jamoaviylik ruhini mustahkamlashga xizmat qildi.

Jalolxo‘ja BO‘RIXO‘JAYEV,
Bekobod tumani “Nuroniy”
jamg‘armasi raisi

SHOIRNI XOTIRLAB

MUHABBAT VA SADOQAT KUYCHISI



Ba’zi shoirlar bor — ularni o‘qib tushunasiz. Yana shundaylari ham borki, ularni o‘qib his qilasiz. Ammo juda kam ijodkorlar borki, ularni o‘qib yashaysiz. Muhammad Yusuf ana shunday noyob shoirlardan biridir. Uning she’rlari kitob sahifalarida qolib ketmaydi — ular inson qalbiga ko‘chadi, kundalik hayotga singadi, tilga, xotiraga, hatto yurak urishiga aylanadi. Uning nomi tilga olingan zahoti ko‘z oldimizda oddiy, ammo buyuk tuyg‘ular jonlanadi: Vatan, ona, muhabbat, sadoqat, sog‘inch, armon… U murakkab falsafiy nazariyalar bilan emas, balki inson qalbining eng nozik nuqtalariga ta’sir etadigan sodda va samimiy so‘zlar orqali adabiyotda o‘chmas iz qoldirdi.

Bugungi tezkor va texnologiyalashgan zamonda ham Muhammad Yusuf ijodi o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, uning she’riyati tobora zarurroq bo‘lib bormoqda. Chunki u bizga unutilib borayotgan eng muhim qadriyatlarni eslatadi: haqiqiy muhabbatni, chin sadoqatni va insoniylikni. Shoir uchun muhabbat faqat ikki inson o‘rtasidagi tuyg‘u emas. U bu tushunchani kengroq talqin qiladi. Uning nazarida muhabbat — Vatanga bo‘lgan cheksiz mehr, onaga hurmat va ehtirom, hayotga bo‘lgan qiziqish va shukronalikdir. Ana shu yondashuv Muhammad Yusuf ijodining asosiy ustunlaridan birini tashkil etadi.

Muhabbat bilan bir qatorda, sadoqat mavzusi ham shoir ijodida alohida o‘rin tutadi. Agar muhabbat yurakda tug‘iladigan tuyg‘u bo‘lsa, sadoqat — o‘sha tuyg‘uning davomiyligi, sinovlardan o‘tgan shaklidir. Muhammad Yusuf sadoqatni insonning eng muhim va yuksak fazilatlaridan biri sifatida talqin qiladi. Uning she’rlarida sadoqat turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: sevgiga sadoqat, Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, do‘stlikka vafodorlik. Bu esa uning ijodini mazmunan boyitadi va chuqurlashtiradi.

Muhammad Yusuf ijodining yana bir muhim xususiyati — xalqona uslubidir. Shoir murakkab iboralar yoki tushunarsiz tasvirlar ortiga yashirinmaydi. Aksincha, sodda va ravon til orqali chuqur ma’nolarni ifodalaydi. Bu esa uning she’rlarini keng kitobxonlar uchun tushunarli va yaqin qiladi. Uning satrlarini o‘qigan har bir inson o‘zini o‘sha she’r ichida his qiladi, chunki unda sun’iylik yo‘q — faqat rostlik bor.

Shoirning samimiyligi uning eng katta kuchidir. U o‘z his-tuyg‘ularini yashirmaydi, ularni qanday bo‘lsa, shunday ifodalaydi. Shu sababli uning she’rlari o‘quvchi qalbiga tez yetib boradi. Chunki samimiy so‘z har doim o‘z manzilini topadi. Muhammad Yusuf she’riyatida muhabbat va sadoqat aynan shu samimiylik orqali yanada ta’sirchan tus oladi.

Muhammad Yusuf ijodiy muvaffaqiyatining asosiy sabablaridan biri — uning xalq bilan uzviy bog‘liqligidadir. U o‘zini xalqdan ajratmagan, aksincha, xalq bilan birga yashagan, uning dardini his qilgan. Shu bois uning she’rlari xalqning o‘ziga o‘xshaydi. Undagi obrazlar, fikrlar va tuyg‘ular oddiy inson hayotidan olingan. Natijada shoir xalq qalbidan mustahkam joy olgan.

Bugungi kunda ham uning she’rlari qo‘shiqlar orqali yangramoqda, yoddan aytilmoqda va hayotiy hikmat sifatida tilga olinmoqda. Bu esa uning ijodining umrboqiy ekanini ko‘rsatadi. Har bir avlod uning asarlaridan o‘ziga kerakli ma’naviy oziqni topa oladi.

Shoir asarlari yoshlar tarbiyasida ham muhim o‘rin tutadi. Ular orqali yoshlar rostgo‘ylikni, vafodorlikni va samimiyatni o‘rganadi. Muhammad Yusuf muhabbatni ulug‘labgina qolmay, uni to‘g‘ri tushunishga ham undaydi. Sadoqatni targ‘ib etish orqali esa yoshlarni mas’uliyatli va vijdonli bo‘lishga chorlaydi. Bu esa jamiyatning ma’naviy rivoji uchun muhim omildir.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf o‘zbek she’riyatida muhabbat va sadoqat mavzularini eng samimiy va hayotiy tarzda kuylagan shoirlardan biridir. Uning she’rlari yurakdan chiqqan va yana yurakka yetib boradigan so‘zlardir. U bizga muhabbatni qadrlashni, sadoqatni asrashni va inson bo‘lib yashashni o‘rgatadi. Shu bois shoir ijodi nafaqat adabiy meros, balki har bir inson uchun hayotiy qo‘llanma, ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi manba bo‘lib qolaveradi.

Dilnavoz NURMURODOVA,
Bekobod tumani
33-umumta’lim maktabi
10-sinf o‘quvchisi

Zamondosh qahramon

O‘ZLIGIMIZ TIMSOLI

Yurtimizda Mustaqillik bayramining 35 yilligi arafasida joylarda erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lida ulkan obodonlashtirish ishlari qizg‘in olib borilmoqda.

Jumladan, Bekobod tuman markazidan tortib mahallalarigacha bo‘lgan hududlar haqiqiy bunyodkorlik maydoniga aylangan. Ayniqsa, Zafar shaharchasida yangi Xotira maydoni, tarix muzeyi hamda zamonaviy obyektlar qurilishi avj pallada. Bunday fayzli maskanlar barpo etishda tajribali hunarmandlarning jalb etilgani quvonarlidir.

Gap shundaki, vodiylik O‘zbekiston xalq ustasi, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi Muhammadali Yunusov boshchiligidagi mahoratli ustalarning yaratgan mehnatini ko‘rib ko‘nglingiz yayraydi.



Suratda: O‘zbekiston xalq ustasi Muhammadali Yunusov ish jarayonida.

— Bunday milliy ruhdagi, naqshli ustunli ayvonlar bilan Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Hazrati Imom majmua-ziyoratgohlarini barpo etishda ham ishtirok etganmiz, — deydi yurtimizning mashhur yog‘och o‘ymakori, xalq ustasi Muhammadali Yunusov. — Zero, yangi qurilayotgan istiqbolli maskanlar betakror milliy o‘zligimiz timsolidir.

Sultonboy DEHQONOV

ADOLAT VA INTIZOM MASKANI

HUQUQIY TA’LIM

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish bilan bir qatorda, soha xodimlarining malakasini oshirish masalasi ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. 1992-yil 24-yanvarda hukumat qarori bilan tashkil etilgan Qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish markazi bugungi kunga qadar ulkan evolyutsion yo‘lni bosib o‘tdi. 2007-yilda Bosh prokuratura huzuridagi Oliy o‘quv kurslari, 2018-yilda esa Akademiya sifatida qayta tashkil etilgan ushbu muassasa, nihoyat 2022-yilda davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi hamda PF–257-sonli Farmoni bilan mutlaqo yangi maqomdagi Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga aylantirildi. Akademiyaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan boshliq rahbarlik qilishi muassasaning davlat ierarxiyasidagi yuksak nufuzi va mas’uliyatidan dalolat beradi.

Bugungi kunda Akademiya prokuratura hamda tergov-surishtiruv organlari uchun kadrlarni yagona yondashuv asosida tayyorlaydigan, zamonaviy xalqaro andozalarga mos ta’lim maskaniga aylangan. Bu yerda ta’lim tizimi sohaning o‘ziga xos murakkabliklarini inobatga olgan holda tabaqalashgan tartibda tashkil etilgan. Xususan, tergov faoliyati yo‘nalishida kadrlar harbiylashtirilgan va harbiylashmagan tarkibga bo‘lingan holda 3 yil davomida intensiv o‘qitiladi. Prokurorlik faoliyati yo‘nalishida esa bo‘lajak mutaxassislar 4 yil davomida fundamental huquqiy bilim va nazorat ko‘nikmalarini egallaydilar. Bunday tabaqalashgan tizim talabalarning o‘z yo‘nalishi bo‘yicha chuqur ixtisoslashuvini ta’minlaydi.

Akademiyaning ilmiy salohiyati 13 ta ixtisoslashgan kafedra, jumladan, Kriminalistika va sud ekspertizasi, harbiy va jismoniy tayyorgarlik hamda tezkor-qidiruv faoliyati va kiberhuquq kafedralari faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. 2018–2024-yillar davomida muassasa professor-o‘qituvchilari tomonidan 36 ta darslik, 78 ta o‘quv qo‘llanma va 44 ta monografiya nashr etilgani ilmiy izlanishlarning amaliyot bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi “Big Data” va sun’iy intellekt texnologiyalarini tergov jarayoniga tatbiq etishda yangi ufqlar ochdi. Shuningdek, 2025-yildan ish boshlagan Korrupsiyaga qarshi kurash virtual akademiyasi aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy madaniyatini oshirishda asosiy platforma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Akademiyaning xalqaro maydondagi nufuzi yildan yilga yuksalib boryapti. Fransiya Milliy magistratura maktabi, Xitoy Oliy xalq prokuraturasi huzuridagi institut, Janubiy Koreya, Hindiston hamda Yevropaning nufuzli universitetlari (Lund, Xelsinki, Maribor) bilan imzolangan o‘nlab memorandumlar talaba va o‘qituvchilarning global tajriba almashishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Hozirda Salom Samadov rahbarlik qilayotgan ushbu maskan nafaqat bilim beruvchi dargoh, balki Yangi O‘zbekistonning adolat poydevorini mustahkamlovchi, ilm va intizom uyg‘unlashgan strategik markazdir. Bu yerda shakllangan uzluksiz ta’lim tizimi — bakalavriatdan doktoranturagacha bo‘lgan jarayon mamlakatimiz huquqni muhofaza qilish tizimi uchun yetuk va munosib kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Arslonbek SAYFULLAYEV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Tergov faoliyati (harbiylashtirilgan) yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

E’LON

Bekobod tumani “Bekobod ulgurji dehqon bozori” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Bekobod tumani “Qoraqo‘yli” mahallasidan ajratilgan 5,0 gektar yer maydonida zamonaviy qishloq xo‘jalik mahsulotlari ulgurji bozorini barpo etish belgilangan.

Shu munosabat bilan jamiyat bosh pudrat tashkilotini aniqlash maqsadida tanlov e’lon qiladi.

Tanlov o‘tkaziladigan vaqt – 2026-yil 6-may soat 14:00da.

Tanlov o‘tkaziladigan joy – Bekobod tuman hokimligi binosi.

Tanlovda ishtirok etish istagida bo‘lgan tadbirkorlar 5-may soat 18:00ga qadar kerakli hujjatlarni taqdim etishlari so‘raladi.

Mas’ul – “Bekobod ulgurji dehqon bozori” MChJ rahbari Sh.Tojiqulov

Tel: 94-351-03-20

Tumanimiz tarixidan

BEKOBOD QISHLOQLARI HAQIDA

Bekobod tumanining tashkil topganiga shu yil kuzda yuz yil bo‘ladi. Lekin Sirdaryo qirg‘oqlarida yastanib yotgan qadim va ko‘hna yurtning tarixida ko‘plab ovul va qishloqlar, harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan tepaliklar, Buyuk ipak yo‘lining qo‘shimcha tarmoqlari bo‘lganligi juda ko‘p tarixiy kitoblarda qayd etilgan. O‘tgan asrning 60-90-yillarida va Mustaqillik yillarida bizga zamondosh bo‘lgan Bekobodning asl ziyoli farzandlari ayrim qishloqlar, tepaliklar, vatanparvar insonlar tarixini yozib, kitob nashr qilishib, tumanimiz tarixini mukammal yaratishga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Bunday fidoyi yurtdoshlarimiz qatoriga To‘lqin Suyarov, Qosimjon Yoqubov, Karimqul Mavlonov, Abdumannon Umaraliyevlar kiradi. Shuningdek, o‘z qishloqlari tarixini yozib, kitobga muhrlagan Mamatqul Toshmatov, Hamdam Boymurodov, Xo‘jaahmad Bobomurodov, Hanifa opa Hamroqulova, Hamidxon Sulaymonovlar nomini ham chuqur hurmat bilan tilga olamiz. Irmoqlar yig‘ilib daryo bo‘ladi deganlaridek, tumanimiz tarixini yozishda bizlarga barcha imkoniyatlarni yaratib berayotgan hurmatli hokimimiz tashabbuslari va bevosita rahbarligida tumanning mukammal tarixi yaratilmoqda.

Biz ishchi guruh a’zolari qo‘limizda bor tarixiy hujjatlar, mualliflarimiz nashr etgan kitoblardan foydalanib O‘zbekiston davlat mustaqilligining 35 yilligi bayramiga to‘yona sifatida Bekobod tarixini misqollab yig‘moqdamiz.

Bugungi sahifamizda fidoyi inson, viloyatimizda taniqli jurnalist, jonajon gazetamizning ko‘p yillik muharriri Karimqul hoji Mavlonovning tumanimiz tarixiga bag‘ishlangan kitobidan bir parchasini siz aziz gazetxonlarimiz e’tiboriga havola qilmoqdamiz. Yana bizga ma’lum bo‘lmagan tarixiy hujjatlar, maqolalar, ota-bobolarimiz fotosuratlari sohibi bo‘lgan gazetxonlarimizdan bu xayrli ishga o‘z hissalarini qo‘shishlarini so‘rab qolamiz.

Nurali JALIL,
Bekobod tumani tarixini yozish bo‘yicha ishchi guruh a’zosi

CHANOQ



Qoraqo‘yli mahallasida yangi dehqon bozori qurilishiga start berilish jarayoni.

Chanoq qishlog‘i “Dalvarzin” dashtining shimoliy nuqtasida, “Bekobod—Toshkent” avtomagistral yo‘lining ikki tomonida joylashgan qadimiy aholi maskanlaridan biridir. Qishloqning sharqida Tojikiston respublikasi Mastchoh tumani yer maydonlari, janubiy-sharqda “Turon” mahalla fuqarolar yig‘ini, janubiy-g‘arbda Savrak qishlog‘i, shimol tomonda Oybek nomli chegara-bojxona posti joylashgan. Iqlimi kontenental, qishda 20-25 darajagacha sovuq, yozda esa 40-45 darajagacha issiq bo‘lishi kuzatilgan.

Qishloqda 728 ta xonadon bo‘lib, ularda 4230 nafar fuqaro istiqomad qiladi. Ularga qishloq oilaviy poliklinikasi, 30 ta savdo do‘koni, 5 ta oshxona, 2 ta novvoyxona, 2 ta sartaroshxona, dorixona va har seshanba kuni bo‘ladigan bozor xizmat ko‘rsatmoqda. Hududda 734 nafar o‘quvchi bilim olayotgan o‘rta maktab, 325 bola tarbiyalanayotgan 3 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda 2 ta sport maydonchasi faoliyat yuritmoqda. Aholining asosiy qismi 4 ta fermer xo‘jaligi va “MAKS GREEN” agrosanoat klasteri hamda o‘z tomorqa yerlari hisobidan daromad qiladi.

* * *

Qishloq nomining kelib chiqish tarixiga kelsak, rivoyatlarga ko‘ra u Chanoq ismli bir avliyo kishining nomi bilan bog‘liq. Mahalliy aholining aytishiga qaraganda, bu hududlar qadimda qaqragan cho‘l bo‘lgan. Bahorda yam-yashil o‘t-o‘langa burkangan qir-adirlar yozga kelib qovjirab qolgan. Suvsiz maskanda odamlar istiqomad qilmagan. Shunda bir avliyo kishi kelib, qirlikning tagini kovlab suv chiqazgan. Keyinchalik Allohning mo‘jizasi bilan buloqning yonboshidan yana 7-8 ta buloq ko‘z ochgan. Hayot manbai bo‘lgan suvning paydo bo‘lishi tufayli bu yerga odamlar ko‘chib kela boshlashgan va aholi maskani vujudga kelgan.

Vaqti-soati kelib Chanoq ota hayotdan ko‘z yumgan. Odamlar u kishini e’zozlab, qirlikning tepasiga dafn etganlar. Bu tepalik asta-sekin qabristonga aylangan va hozirga qadar qishloq mayitlari shu joyga qo‘yiladi. Oybek nomli chegara-bojxona posti yuqorisida joylashgan ushbu “Chanoq ota” tepaligi hozirda arxeologik obyekt sifatida davlat ro‘yxatiga olingan. Qishloqning nomi ana shu avliyo sharafiga Chanoq deb atab kelinadi.

Yana bir tarixiy fakt ushbu hududning ancha qadimiy maskanlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Olim va yozuvchi Bo‘riboy Ahmedovning “Amir Temur” nomli tarixiy romanida quyidagi satrlarni o‘qish mumkin. “Movarounnahrda, ya’ni Chig‘atoy ulusining g‘arbiy qismida boshlangan parokandalikdan o‘sha paytlarda ancha kuch-qudratga to‘lgan Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temurxon foydalanib qoldi. U xijriy 761-yilning rabi-ul-avval oyida (melodiy 1360-yilning fevral oyi o‘rtalarida) sanoqqa sig‘maydigan qo‘shini bilan Movarounnahrga yo‘l oldi. Sayram mo‘g‘ulga qarshilik ko‘rsatmay taslim bo‘ldi. Turkistonning katta yo‘l ustida joylashgan shahar va qishloqlari shu zaylda Tug‘ruq Temirxonga taslim bo‘ldilar. Oradan bir oy o‘tar-o‘tmas mo‘g‘ulning katta qo‘shini Sirdaryoning o‘ng sohilida paydo bo‘ldi. Xo‘jand qarshisida joylashgan Chanoq buloqqa yetganlarida Tug‘luq Temirxon lashkarni to‘xtashga buyurdi.

- Chang‘i o‘tkazmoq zarur, - deydi u vazirlarga.

Chanoq buloqda qisqa harbiy kengash o‘tkazildi. Bir kecha-kunduz lashkarga dam berilgandan so‘ng yurishni davom ettirishga ruxsat berildi”. (B.Ahmedov. Amir Temur. Tarixiy roman. T – 1995. 14-bet).

Shuni ham ta’kidlash kerakki, etnograflarning aytishicha, o‘zbek millati Tortuvli urug‘ining bir tarmog‘i Chanoq deb ataladi. Shunga ko‘ra bu joyning dastlabki aholisi ana shu urug‘ vakillari bo‘lishi va qishloq shu urug‘ nomi bilan atalgan bo‘lishi mumkin. (Malik Egam. Bekobodnoma. 1996-yil. 46-bet).

Barcha keltirilgan ihtiboslar Chanoq qishlog‘ining Bekobod tumanidagi qadimiy aholi yashash maskanlaridan ekanligini ko‘rsatadi.

* * *

Chor Rossiyasining mustamlakachilik davrida xalqning turmushi nihoyatda qiyin kechdi. Ayniqsa, 1916-yil juda ham og‘ir keldi. Havo quruq kelib, chigirtkalar ko‘payib ketdi. Natijada ekinlar yaxshi hosil bermadi. Oziq-ovqat, ayniqsa bug‘doyning narxi ko‘tarilib ketdi. Buning ustiga mardikorlikka olish jarayonlari boshlandi. Aholining noroziligi va qarshiliklariga qaramay, Dalvarzin volostidan 33 kishi mardikorlikka olib ketildi. (Qosimjon Yoqubov. Sir sohilidagi sovxoz. T - 1982. 360-bet).

Yaxshiyamki, ko‘p o‘tmay sabr kosasi to‘lgan chorizm xalqi podshoni taxtdan ag‘darib tashladi. Tez orada Dalvarzin volostida ham hokimiyat xalq qo‘liga o‘tdi. Hududda yangicha hayot qurish ishlari amalga oshirila boshlandi. Yer-suv islohoti o‘tkazildi, mahalliy boylarning mol-mulki musodara qilindi. 1909-yilda Qurama uyezdining tegishli hududiga mingboshilik qilgan Suvonqul Jiyapboyev Sovet hokimiyati tomonidan Dalvarzin volostiga mingboshi etib saylanadi va Turkiston sho‘ro hukumatiga xizmat qila boshlaydi.

O‘sha davrlarda hukumat tomonidan Chanoq qishlog‘iga yuborilgan bolshevik tushuntirish ishlarini olib bordi. Unga Qurbon Norqo‘ziyev, Beknazar Qulanov, Asqar Qulmatov kabi Chanoq faollari yaqindan yordam berdilar.

1926-yilda Berdiboy, Murodboy, To‘raboy, Jiyanqul qozi va Suvonqul mingboshilarning musodara qilingan yerlarida “Chanoq” nomli yerni birgalikda ishlash bo‘yicha shirkat (TOZ) tuzildi. Qishloq batraklarining umumiy yig‘ilishida unga Beknazar Qulanov rais qilib saylandi.

Kollektivlashtirishning uch xil — kommuna, TOZ, artel shakli bo‘lib, dehqonlarni birlashtirishda, ularning shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatlar bilan bog‘lashda uchinchisi namunali ekanligi ma’lum bo‘ldi.

1930-yilda tashkil etilgan Ismoilov nomli kolxoz 1931-1932-yillarda “Pravda” nomiga o‘zgartirildi. 1933-yilda esa kamquvvat mayda kolxozlar birlashtirilib, yirik xo‘jaliklar tashkil etila boshlandi. Ana shu davrda “Pravda” va boshqa kolxozlar ham birlashib, “Yangi hayot” kolxozi tashkil topdi. Yiriklashtirilgan yangi xo‘jalikka Tosh Sultonov rais etib saylandi va u shu yili Moskvada bo‘lib o‘tgan kolxozchilarning Butunittifoq 1 se’zdida ishtirok etdi.

“Yangi hayot” kolxozi 1935-1936-yillarga kelib, iqtisodiy jihatidan ancha baquvvat xo‘jalikka aylandi. Kartochka sistemasida haq to‘lash bekor qilinib, ish haqlarining bir qismi naqd pul bilan beriladigan bo‘ldi. Dala ishlariga texnikaning kirib kelishi dehqonlar ishini ancha yengillashtirdi.

***

Ikkinchi jahon urushi Chanoq qishlog‘iga ham katta qiyinchiliklarni tug‘dirdi. Ishga yaroqli erkaklar frontga ketganligi tufayli hamma ishlar qariyalar, ayollar va bolalarga qolgan edi. Texnika kuchi yetishmas, butun boshli kolxozda bittagina traktor bor edi. Q.Yoqubovning “Sir bo‘yidagi sovxoz” kitobida yozilishicha, o‘sha davrda brigada boshlig‘i Gulsum Ismadiyorova rahbarligida Bosar Begimqulova, Xolbuvi Yorboyeva, Oyto‘ti Abdullayeva, Xurbuvi Mamarayimova kabi ayollar haqiqiy jasorat namunasini ko‘rsatib mehnat qilganlar.

50-yillarda ekin maydonlarining kengayishi, aholi sonining ortishiga qaramay, kolxozlarning iqtisodiy ahvoli og‘ir edi. Hosildorlikning pastligi, harajatlarning yuqoriligi sabab hududdagi kolxozlar davlatdan katta miqdorda qarzdor edi. Natijada hukumatning 1957-yil 5-avgustdagi qarori bilan 5 ta kam quvvatli, mayda kolxozlar birlashtirilib, “Chanoq” sovxozi tashkil etildi. Yangi davlat xo‘jaligining markazi Chanoq qishlog‘i etib belgilandi.

1968-yilda O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, akademik Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek vafot etganligi munosabati bilan uning nomini abadiylashtirish maqsadida “Chanoq” sovxoziga Oybek nomi berildi.

70-80-yillarda faoliyat ko‘rsatgan sovxoz rahbarlari xo‘jalik markazini obodonlashtirishda bir muncha ishlarni amalga oshirdilar. Qishloqda kasalxona, 2 ta bolalar bog‘chasi va yangi klub faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ayniqsa Parkent tumani ijroqo‘mining sobiq raisi Asad Hikmatov 1987-yilda xo‘jalikka direktor bo‘lgach, markazdagi obodonchilik ishlari yanada jonlandi. Istirohat bog‘i ochilib, uning o‘rtasiga Oybek domlaning haykali o‘rnatildi. Ma’naviyat markazi va Oybekning uy-muzeyi qurilib, foydalanishga topshirildi.

1988-yilda shu qishloq farzandi, uzoq yillar sovxoz iqtisod bo‘limi va buxgalteriyasiga rahbarlik qilgan Normurod Esonov xo‘jalikka direktor etib tayinlanadi. Undan keyin Inomjon Subonov, Abdusamad Jumaboyev, Zikir Xo‘jabekov kabi bir qator insonlar rahbarlik qildilar. 2004-yilga kelib hukumat qarori bilan jamoa xo‘jaligi tugatilib, fermer xo‘jaliklariga aylantirildi. Chanoq qishlog‘i hududida 16 ta fermer xo‘jaligi tashkil etildi. Hozirda ular soni 4 ta bo‘lib, qolgan yer maydonlari “MAX GREEN” agrosanoat klasteriga qarashlidir.



Sarvak mahallasida yangi temir yo‘l qurilishining boshlanishi.

Chanoq qishlog‘i joylashgan “Qoraqo‘yli” mahalla fuqarolar yig‘ini 2017-yilda “Obod mahalla” dasturiga tushib, bir qancha obodonchilik ishlari bajarildi. Asosiy ichki yo‘llar asfaltlandi, eski simyog‘ochlar o‘rniga temir-beton stolbalar o‘rnatilib, tungi yoritish moslamalari bilan ta’minlandi. Mavjud vodaprovod tarmog‘i qayta tiklandi, 2024-yilda esa yana 9 kilometr yangi tarmoq tortilib, 98 foiz aholi toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi. Shuningdek o‘tgan yili qishloqning 0,5 gektar foydalanilmay yotgan yer maydoniga 1200 tup turli xil manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tqazilib, “Yashil makon” yaratildi va bu yangi bog‘ hududida mahalla guzari tashkil etildi.

Qishloq ahli o‘zlaridan yetishib chiqqan taniqli insonlari bilan faxrlanadilar. Huquqshunoslik fanlari doktori, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist” Zamira Esonova, matematika fanlari doktori Kamoliddin Xojiyev, respublika va viloyat prokrutura organlarida rahbarlik lavozimlarida ishlab kelgan, hozirda pensioner Xudoyqul Turdiboyevlar ana shular jumlasidandir.

Ha, Chanoq qishlog‘i Bekobod tumanidagi o‘z tarixiga ega, buguni farovon kechayotgan va kelajagi yanada porloq aholi maskanlaridan biridir.

Karimqul MAVLONOV,
Bekobod tumani tarixini yozish bo‘yicha ishchi guruh a’zosi,
Sultonboy DEHQONOV olgan suratlar

Kitob taqdimoti

“USTOZ O‘GITLARI”



Ustozim o‘z ustozlari haqida yozgan kitoblarini menga hadya qildilar. Uni hayajon bilan qo‘lga olib, ilk sahifalarini varaqlay boshladim. Ushbu asar o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandasi, O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov haqidagi samimiy xotira hikoyalaridan iborat ekan.

Kitob sahifalariga singib ketgan har bir xotira, har bir satr ortida ulkan ijodkorning insoniy qiyofasi, hayotiy qarashlari va ijodiy olami yorqin namoyon bo‘ladi. Ustozim esa mendan farqli ravishda o‘z ustozining nafaqat sadoqatli shogirdi, balki maslakdoshi sifatida shoir hayoti va ijodiga oid biz bilmagan ko‘plab haqiqatlarga guvoh bo‘lgan. Ana shu bebaho xotiralarni yillar davomida e’zozlab, qog‘ozga muhrlab kelgan.

Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Nurali Jalil tomonidan yozilgan ushbu kitob, hech shubhasiz, Abdulla Oripov siymosini yanada teranroq anglashga xizmat qiladigan, eng sara asarlardan biri bo‘lib qoladi. Undagi xotiralar nafaqat adabiyot ixlosmandlari, balki keng kitobxonlar ommasi uchun ham qimmatli ma’naviy manba hisoblanadi.

Shu bois, ushbu kitobdan ayrim parchalarni siz, aziz gazetxonlar e’tiboriga havola etishni maqsad qildik. Ishonamizki, bu xotiralar sizni ham o‘yga toldiradi, qalbingizda ulug‘ ijodkor siymosiga nisbatan yanada chuqur hurmat va ehtirom uyg‘otadi.

Sarvinoz SHERALIYEVA

YOG‘ TO‘KILGAN SHE’R DAFTARI

O‘shanda Abdulla aka Moskvaga bir necha kunga kelgan edilar. She’rlaringni olib kel degan takallufdan ruhlanib bizday havaskor ertalabdanoq shoir yoniga borishga tayyorgarlik ko‘rdik.

Biz sodda talabalar o‘shanda o‘ylabmiz: “Endi Abdulla aka Moskvada bir mehmonxonada tursa, har kuni borsh ichib, kotletlar yeb, o‘zbekcha ovqatlarni qo‘msab o‘tirgandir”, – debmiz. Botir ikkalamiz bir kilo go‘sht olib yaxshilab qovurdoq qildik, laganga bosdik, yoniga yana mayda-chuyda qo‘shib, kechga yaqin “Rossiya” mehmonxonasiga ravona bo‘ldik.

Borsak, yotoqxona nomerida Abdulla aka bir o‘zlari o‘tirgan ekanlar. Men shoshilishda ovqat solingan paketga kattagina she’r daftarimni ham solib olgan edim. Metroda borguncha ovqatning yog‘i idishdan to‘kilib, daftarni ham bir chetini yog‘ga bo‘yab qo‘yibdi. Borib daftarimni Abdulla akaga beraman desam yog‘ to‘kilgan. Shunday bo‘lsa ham, yog‘ini artib-artib she’r daftarimni Abdulla akaga berdim. “Nima qilding buni?” – dedilar Abdulla aka. Men shoshilib daftarimni qovurdoq bilan birga solib kelganimni aytdim. Tan berib aytamanki, Abdulla aka bizning soddaligimizdan kulmadilar, aksincha, “E, ukalarim-a, ovora bo‘libsizlar-da, axir bizni hukumat boqib yotibdi-ku”, – dedilar va biz bilan birga qovuqdoqdan tanovul qildilar. Daftarimni varaqlab she’rlarimni o‘qidilar, ayrimlarini esa tahlil qilib berdilar. Yog‘ to‘kilgan varaqlarga ishora qilib: “Yog‘ni to‘kishga to‘kibsan, lekin Nuraliboy, buning ham yaxshi xosiyati bor. She’r ham yog‘li bo‘lsa zarar qilmaydi. Axir palovning ham yog‘lisi mazali bo‘ladi-da”, – dedilar. Qachon shu daftarimni qo‘limga olsam, Abdulla akamning o‘sha gaplari yodimga tushadi.

SHOIRGA MAKTUB



Mayda-chuyda gapni rad etgan og‘am,
Kuzni qayta-qayta qayd etgan og‘am,
Dostonlik ma’nini bayt etgan og‘am,
Siz neni istaysiz, so‘ylang, og‘ajon!

Siz bilan uchrashdim, mana “Yuzma-yuz”,
“Yillar armoni”ni tuydim izma-iz,
Qayda yurdim mag‘rur, qayda cho‘kdim tiz
Siz neni istaysiz, so‘ylang, og‘ajon!

Nazmingizda Vatan – misoli oftob,
“Ona sayyora” bu – aylanar shitob,
Lekin tanishingiz topolmay xunob,
Siz neni istaysiz, so‘ylang, og‘ajon!

“O‘zbekiston” ichra o‘zimni bildim,
“Hangoma” aytdingiz, miriqib kuldim,
Va “Temir odam”ga borib urildim,
Siz neni istaysiz, so‘ylang, og‘ajon!

“Mo‘min Mirzo” ukam deb chekdingiz dard,
G‘afur G‘ulom ketdi – alam beadad,
Pahlavon Mahmuddan so‘raysiz madad,
Siz neni istaysiz, so‘ylang, og‘ajon!

“Onajon” ko‘zlarda yoshlar shashqator,
“Ayol”ga bizlardan sajdalar darkor,
“Munojat”ni tinglab takror va takror,
Siz neni istaysiz, so‘ylang, og‘ajon!

Maktublar bitdingiz tushib hayratga,
Hamisha asirsiz bir his, bir dardga,
Oxir ikki paysa yetmas Jannatga,
Siz neni istaysiz, so‘ylang, og‘ajon!

Og‘a, ming bor haqsiz – dunyo bozordir,
Gohida kengdir u, gohida tordir,
“Nahotki dunyoda shuncha g‘am bordir?”
Siz neni istaysiz, so‘ylang, og‘ajon!

Hasadgo‘ylar yedi ilhomning boshin,
Tuhmatchilar otdi malomat toshin,
Tokay haq deganlar to‘kkay ko‘zyoshin,
Siz neni istaysiz, so‘ylang, og‘ajon!

Og‘a, dunyo borki bo‘ling salomat,
Yiroq bo‘lsin sizdan dard-u malomat,
Hush qoling, bir javob kutarman faqat,
Siz neni istaysiz, so‘ylang, og‘ajon!

1985-yil, iyun

“OSON BO‘LMAGAN HECH ABDULLALARGA”

She’riyat shu jihati bilan yuksak va go‘zalki, u har doim hayotimizda biz bilan yonma-yon, qadamma-qadam yuradi. Faqat ko‘plarimiz uni yo sezmaymiz, yo e’tibor bermaymiz. 1987-yil ustozning “Ism haqida” deb nomlangan ajoyib sakkiz qator she’ri yaraldi. Shoir butun samimiyati bilan, insonlarga bo‘lgan muhabbati bilan she’rda: “Ismimni birovga ravo ko‘rmasman”, – deb aytadi. Sababi ravshan. Ustozning tarixda o‘tgan barcha otdoshlari: Avloniy, Qodiriy, Qahhorlar o‘z zamonida zahmat va qiyinchiliklar, tahqir va azoblar ichra yashab ijod qilganlar. Sobiq ittifoq tuzumida bu azoblardan Abdulla aka ham bebahra qolmagan.

Abdulla akaning Bekobodga navbatdagi kelishlarining birida davramizda tuman pedagogika bilim yurti rahbari rahmatli Abdulla Eliboyev ham bor edi. Ustoz dasturxon ustida navbatdagi tabriklardan birida otdoshlari Abdulla akaga qarata (u vaqtlar Abdulla Eliboyev tuman partiya qo‘mitasida mafkura bo‘limini boshqarar edi) “Tuman mafkurachilarining darg‘asi ekansiz”, – deb ta’rif berdi. Oddiy bir bo‘lim boshlig‘iga “darg‘a” so‘zini ishlatish ustozning o‘z otdoshiga mehrli e’tibori edi. Davramiz qizg‘in payti ustoz Abdulla aka bilan tashqariga otlandi. Biz o‘tirganlar kuzatib chiqmoqchi bo‘ldik. Shunda Abdulla aka qat’iy ohangda: “Hech biringiz joyingizdan qimirlamang, men mana shu otdoshim bilan bir shamollab kelay, – dedilar. – Har tugul, siz ham Abdullasiz, bizga o‘xshab qiynalgan yigitga o‘xshab turibsiz”. Bu borada shoir haq edi. Abdulla Eliboyev ham qiynalib, otadan erta qolib o‘sgan, o‘sha paytdagi mavqeyiga ham ko‘p qiyinchiliklarni yengib erishgan edi. (Keyinchalik, Abdulla Eliboyev 51 yoshida vafot etdi, Alloh rahmat qilsin.)

She’rdagi fikr va haqiqatning hayotdan olinishi va yillar o‘tgan sari bu holatlarning hayotda takrorlanishi, isbotlanishiga yana bir bor guvoh bo‘lgan edik shunda. Men ism haqida hammaga tanish shu she’rni yana bir bor e’tiboringizga havola etmoqchiman:

Xayolimga kelar goh g‘alati bir gap,
Gar uni el aro so‘ylab yurmasman.
Bilmadim, ne bois, bilmam ne sabab,
Ismimni birovga ravo ko‘rmasman.

Ulug‘ otdoshlarim maqomi yuksak,
Men shogird erurman garchand alarga.
Har nechuk, bir gapni aytmog‘im kerak:
Oson bo‘lmagan hech Abdullalarga.

USTOZ IZIDAN

Agar ustoz hayotlik davrida jonajon O‘zbekistonimizning qaysi shahri, qaysi tumanida ijodiy safarda bo‘lgani, o‘z muxlislari bilan qanday davralarda uchrashuv va she’rxonlik majlislarini o‘tkazganini xotira sifatida yozib yurganlarida edi, “Tanlangan asarlar”iga yana ikki-uch tom kitob qo‘shilgan bo‘lardi. Yaratganga shukronalar bo‘lsinkim, bu vazifani ustoz etagini murid kabi mahkam tutgan shogirdlari, mehrlik muxlislari baholi qudrat bajarishga muyasssar bo‘ldik.

Birgina hududidan azim Sirdaryo vazminlik va salobat bilan oqib o‘tuvchi bizning tumanimizda ustoz necha bor bo‘lganlari, qanday davralarni o‘z she’rlari, betakror ovozi bilan munavvar qilganlari haqida yuqorida yozgan edik.

Vaqt tezoqar daryo kabi o‘taverar ekan. Ustozni o‘tganlariga ham o‘n yil bo‘lyapti. Lekin Abdulla Oripovning nomi, uning betakror she’riyati xalqimiz qalbida mangu yashaydi. Buning yorqin isboti 2025-yilning avgust oyida tumanimizda Abdulla Oripov xotirasiga bag‘ishlangan she’riyat uchrashuvidir. Bu uchrashuv ustoz hayotligida u inson bilan respublika idoralarida yelkama-yelka ishlagan tashkilotchi rahbar, tumanimizning bugungi hokimi Zaynilobiddin Nizomiddinovning tashabbusi bilan o‘tkazildi. To‘rt yuz kishilik yig‘inda o‘tirgan she’riyat muxlislari zalga ustozning rafiqasi Xanifa opa Mustafoyeva qizlari Ruxsoraxon bilan kirib kelganlarida bir necha daqiqa tik turib davomli qarsaklar bilan olqishlashlari ham xalqimizning ustoz Abdulla Oripovga bo‘lgan ehtiromi va sog‘inchining yorqin ifodasi edi.

Uchrashuvda Abdulla aka bilan birga ijod qilgan, turli vazifalarda yonma-yon ishlagan insonlar xotiralarini so‘zladilar. Shoirning o‘zi o‘qigan she’rlari audioyozuv vositasida yig‘in ishtirokchilariga eshittirildi. Va albatta, uchrashuvning eng yuksak nuqtasi shoirning umr yo‘ldoshlari Xanifa opa Mustafoyevaning chiqishlari bo‘ldi. Opa chuqur hurmat bilan ustozning bir necha she’rlarini yoddan o‘qib berdilar, ustoz bilan kechgan hayotining yorqin va mahzun damlari haqida so‘zladilar. O‘sha kuni ikki soatlik she’riyat majlisida shoirning yorqin ruhi muhtasham madaniyat saroyi bo‘ylab shodon charx urdi.

Uchrashuv so‘nggida ustozning yuzdan ortiq kitoblari Xanifa opa dasxati bilan tarqatildi, talash bo‘ldi. Abdulla Oripov ijodiga tashna muxlislar yig‘indan so‘ng yana bir soat Xanifa opani ham Ruxsoraxon qizlarini ham qurshovlaridan chiqarmadilar.

Bularning hammasi bag‘rikeng xalqimizning o‘zining ulug‘ farzandi, benazir shoiriga bo‘lgan chuqur ehtiromining yuksak ifodasi edi. Inchunun, Andulla Oripov nomi va ijodi mangulikka qarab ketar ekan, yilma-yil yuksalib va buyuklashib boraveradi…

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497